

*Toshkent davlat yuridik universiteti Xususiy huquq fakulteti 3-bosqich talabasi*

*Abbosova Aziza Orif qizi*

[aabbosova800@gmail.com](mailto:aabbosova800@gmail.com)

#### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekiston yuridik fanining atoqli namoyandasi, huquqshunos olim, fuqarolik protsessual huquqi sohasining yetuk mutaxassisi, professor Shoakbar Shoraxmetov hayoti va ilmiy faoliyati yoritilgan. Maqola orqali olimning ilmiy merosi, uning yuridik ta'lim rivojiga qo'shgan hissasi, shogirdlari bilan munosabati, shaxsiy fazilatlar va jamiyat hayotidagi o'rni ochib berilgan. Shuningdek, maqolada ustozning hayot yo'li, kasbiy faoliyati, ilmiy ishlari va ularning ahamiyati hamda shogirdlar xotirasidagi o'rni haqida ma'lumotlar keltirilgan. Muallif professor Shoraxmetovning yosh avlod tarbiyasi, yuridik adabiyotlar yaratish va millat taraqqiyotiga qo'shgan ulkan hissasini ta'kidlaydi.

**Kalit so'zlar:** Shoakbar Shoraxmetov, huquqshunos olim, professor, fuqarolik protsessual huquqi, ilmiy meros, yuridik adabiyotlar, ilmiy rahbar, ustoz-shogird an'analari, yuridik ta'lim, "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yurist", Toshkent davlat universiteti.

#### Beayb-Parvardigor

Bosib o'tgan hayot yo'lida shu shiorni sovutday kiygan ustoz Shoakbar Shoraxmetov 1931-yil 26-avgustda Chimkent shahrida tavallud topgan. Oilalari kichikroq bo'lib 6 kishidan iborat bo'lgan. Otalari, onalari va yana 3 ta qon-qarindoshlari. Yoshlik chog'laridan ilmga chanqoq bo'lgan Shoakbar ustoz "KIM" maktabini a'lo baholarga tugatib, huquqshunos kasnini egallash uchun poytaxtga qarab yo'l oldi. Maktab yillari urush paytlariga tog'ri kelganligi sababli ham oila qiyinchiliklari bilan oilasiga oz bo'lsa-da yordam berish maqsadida ustoz, oilalari bilan ko'chib kelgan kolxoz ishlarini ham bajarishga ko'maklashish bilan bir qatorda o'qishda ham bir nechta muvaffaqiyatlarga erishganlar. 1950-yil "KIM" maktabini atigi 20 nafar o'quvchi tugatgan bo'lib, bu o'sha paytdagi eng ko'p sonni tashkil qilar edi. Maktabni bitirgach yuqorida ta'kidlaganimday poytaxtga keladilar va huquqshunos bo'lish maqsadida O'rta Osiyo davlat universitetiga hujjat topshiradilar va eng yuqori ball 35 ball bo'ladigan bo'lsa 34 ballni qo'lga kiritib ushbu universitet talabasiga aylanadilar. Universitetda ham o'zining iqtidorligini va bilimga chanqoqligini namoyon eta olgan ustozga o'sha paytdagi kafedra ustozlari universitetda qolib ilmiy faoliyat bilan shug'ullanish taklifini berishadi. Ammo ustoz ilmiy faoliyat bilan shug'ullanib keyinchalik talabalarga dars berish uchun ham insonda nazariy bilimlardan tashqari amaliy ko'nikmalari bo'lishi kerakligi juda yaxshi anglab yetganliklari sababli, hayot yo'llarining eng muhim bosqichini amaliyot ila boshlashga qattiq bel bog'ladilar. Shunday bo'ldi ham 1954-yil Universitetni bitirgan bituruvchilarning bir qismi Namangan viloyat Ijroyi komitetiga yuborildi. O'sha paytdagi ijroyi komiteti raisi mehnat qahramoni Vali Haydarovning shaxsan o'zi ustoz bilan suhbat o'tkazib ushbu rayonda mas'ul kotib sifatida ishlashlari uchun maxsus yo'llanma bergan. Mana shunday qilib ustoz katta hayot yo'lga shoshilmasdan lekin shaxdam qadamlar bilan kirib kelganlar.

Ustozning keyingi hayot yo'llari ham bevosita huquq sohasiga bog'liq bo'lib, 1955-yilda Zardaryo rayon komsomol komitetining birinchi sekretari lavozimiga, 1957-yil dekabr oyidan boshlab Zardaryo rayon xalq sudi sudyasi sifatida, 1967-yilidan boshlab Toshkent davlat

universitetining yuridik fakultetiga ishga kiradilar va kelajak uchun muhim kadrlar yetishtirib berish maqsadida yosh avlodlarga Fuqarolik protsessual huquqida dars bera boshlaydilar. Keyingi o'n yil ichida ilmiy faoliyat bilan birgalikda ustoz, fakultet va partiya sekretari, kechki va sirtqi bo'limlar bo'yicha dekan, keyinchalik dekan o'rinbosari lavozimlarida faoliyat yuritdilar. Kechki va sirtqi bo'limlarida ishlagan vaqtlarida juda ko'p mutahassislarni yetishtirib berishga qattiq bel bog'laganlar. O'sha paytda ushbu bo'limlar bitirgan bitiruvchilar safida hattoki hozir san'atda juda mashhurlikka erishgan shaxslar Yulduz Usmonova, Valijon Shamsiyev, Sayyora Nazirovalar ham bo'lganliklari haqida ma'lumotlar mavjud. Ushbu ma'lumotlardan kelib chiqadiki, ustoz o'z talabalariga o'qishda balkim, o'z hayotlarini yo'lga qo'yishda juda katta ko'mak berganlar. Axir xalqimizda "Yaxshi ustoz - o'z talabari nafaqat ta'lim beruvchi inson balki hayotda o'z o'rnini topishda ko'mak beruvchi sham-chirog'dir". Ustoz haqiqatdan o'zining bilimi va ko'magi orqali juda ko'plab shaxslar hayotini charog'on qilganlar va hozirgacha qilib kelmoqdalar.

Xususan u kishining 1980-yillarda yozgan "Fuqarolik protsessual huquqi" darsliklari hozirgi kunga qadar o'quvchiga ushbu fanni tushunishga eng katta dasturul-amal bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Ushbu darslik asosida ularning bir necha shogirdlari ushbu fanni chuqur o'rganib xatoki, doktorlik dissertatsiyalarini yoqlashgan. Hozirgi kunda ham ushbu fanni o'rganayotgan yosh talabalarga yoshi katta professorlar tomonidan ushbu darslik bilan yaxshilab tanishib chiqishliklarini, hech qanday tarafkashliklar yoki bo'lmasa zamoni qoralamasdan yozilgan darslik bo'lganligi uchun fanning aslini o'rganish uchun eng yaxshi darslikni diqqat bilan o'rganib yod olishni maslahat berib kelinmoqda.

Ustoz 15 yilga yaqin umrlari sirtqi va masofaviy ta'limda o'qiyotgan talabalarining bilimlarini oshirish hamda ushbu sohada muhim bo'lgan darsliklar va qonunlarning tushunarli bo'lishi uchun ularga sharxlar yozishga bag'ishladilar. Ustoz tomonidan yozilgan 1974 hamda 1976-yillardagi "O'zbekiston Grajdankodeksiga sharhlar" ushbu davrlarining muhim qismi bo'lgan desak adashmagan bo'lamiz. Ustozning fan va ilm uchun qilgan harakatlari barchasi qadrlangan holda 1982-yilda "Oliy maktab a'lochisi" nomga, 1983-yilda "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yurist" unvoniga sazovor bo'lganlar. Ustozning ilmiy faoliyatlari haqida qancha so'zlar, tahsinlar aytsak, shunchalar kam, keling shuning uchun ustoz shogirdlar xotirasida qoldirgan izlarga to'xtalsak, Hozirgi kunda Fuqarolik Protsessual huquq kafedra mudiri, yuridik fanlar doktori professor Xabibullaev Davlatjon Yulchiboyevich ustozning oldilariga borganimda Shoraxmetov ustoz haqida quyidagi iliq fikrlarini menga ham ilindilar. Ustozning ta'kidlashicha: "Shoraxmetov domla shogirdlariga nisbatan juda talabchan, qo'l ostidagilariga hamda oila a'zolariga o'ta mehribon, aytgan so'zining qila oladigan, mard va qo'rqmas hamda ilmga juda chanqoq inson bo'lgan ekanlar. Shogirdlar va hamkasblari bilan "bedana kabobxo'rlik" (bu yerda bedana kabob deganda haqiqiy o'zbek juftini nazarda tutilmoqda) qilishni juda yaxshi ko'radigan inson bo'lgan ekanlar. Hattoki bir safar yangi kelgan shogirdlariga bedana kabob olib kelmaysizmi deganlarida, u shogirdlari tushunmasdan bir kun mobaynida o'zimizning Chorsu bozoridan bedana kabob qidirgan, lekin hech qayerdan topa olmasdan ustozning oldiga kelib aytganlarida ustoz yuzida tabbassum bilan bizning bedana kabobimiz aslida haqiqiy o'zbek juftini ekanligini aytgan ekanlar. Shu voqeani kaminaga aytib berib ustoz Shoraxmetov ustoz vaqti kelganda jiddiy, vaqti kelganda xushchaqchaq lekin har doim o'ta samimiy inson bo'lgan ekanliklarini ta'kidlab o'tdilar.

Suhbatimiz davomida ustozimiz Davlatbek aka Shoraxmetov ustozning doimo aytayotgan so'zlari donolik sarchashmasida toblangan bo'lishini, u kishining stollarida "Donolarning bisoti" nomli kitob bo'lganligi, Shoraxmetov domla nafaqat ilmiy balki diniy bilimlarga ham ega

bo'lganliklarini, qayerga bormasinlar doimo davra boshi bo'lganliklarini, ilmiy tadbirlarmi yoki boshqa tadbirlar bo'lsa ham birinchi so'zni Shoraxmetov ustoz aytishini, ham jismonan ham ma'nan yetuk inson bo'lganliklari haqida so'zlab berdilar.

Ustozimiz Davlatbek akani Shoraxmetov ustoz doim "Davlatali" deb atarkanlar. Davlatbek ustozning doktorlik dissertatsiyani yoqlashi uchun ilmiy rahbarlari bo'lganliklarini, hattoki kasal bo'lib qolganliklarida ham kafedra va o'zining shogirdlaridan doim xabardor bo'lib turganliklari, Davlatbek aka Shoraxmetov ustozning hayotlik chog'ida eng oxirgi ilmiy ish yoqlagan shogirdlari bo'lganliklari haqidagi ma'lumotlar bilan men bo'lishdilar.

Maroqli suhbatimiz so'ngida ustoz Shoraxmetov ustozni u kishi uchun ham ustoz, ham ota, ham ilmiy rahbar bo'lganligini aytib, suhbatimizga yakun yasadilar.

Shoraxmetov ustoz rostan ham juda ko'p emas, ammo, millat va ilmga katta hissa qo'sha oladigan shogirdlar yetishtirgan ekanlar. Yuqorida biz siz bilan Fuqarolik Protsessual huquq kafedra mudiri, yuridik fanlar doktori professor Xabibullaev Davlatjon ustozning Shoraxmetov ustoz haqidagi fikrlari bilan o'rtoqlashdik. Endi esa Shoraxmetov ustozning "eng yaxshi shogirdlari" deb qaraladigan yuridik fanlar doktori professor "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yurist" Esanova Zamira Normuratovna ustozning Shoraxmetov ustoz haqidagi xotiralari bilan bo'lishsak. Zamira opa ustozimiz ham Shoraxmetov ustozning ilmga juda chanqoq inson bo'lganliklarini, o'rni kelganda qattiqqo'l ba'zida esa mutoyibisevar inson bo'lgan ekanliklarini, hammaga mehribon, ammo shogirdlarining bajarayotgan ilmiy ishlariga nisbatan juda talabchan inson bo'lganliklari haqida so'zlab berdilar. Zamira opa ustozimizning ilmiy ishlariga Shoraxmetov ustoz ilmiy rahbarlik qilganliklarini, ammo Zamira opa hali ilmiy ishlarini yoqlamasdan turib Shoraxmetov ustoz vafot etganliklari haqida g'amgin holatda aytib berdilar.

Suhbatimiz chog'ida Shoraxmetov domla o'z shogirdlarining farzandlariga ham juda e'tiborli bo'lgan ekanliklarini, qachon shogirdlari farzandlari bilan universitetga kelishsa, beg'ubor go'daklarning qo'liga bitta-bitta qand bermasdan oldilaridan qo'zg'atmaganliklari haqida esladilar. Universitetda ish soati tugagan bo'lishiga qaramasdan Shoraxmetov domla o'zlarining ilmiy ishlari bilan doimo mashg'ul bo'lishlari, Zamira opa ustozimiz hamda boshqa shogirdlari ustozdan oldin ketishga istihola qilishliklari, uyga ketayotgan boshqa shogirdlari albatta Shoraxmetov domlar bilan xayr-xushlashib keyin ketishliklarini bir yodga oldilar. "Shoraxmetov ustoz- haqiqiy rahbar, mehribon va talabchan ustoz, bir so'zli inson edilar"-dedilar Zamira opa ustozimiz fikrlari so'ngida.

Shoraxmetov ustozimiz joylari jannatda bo'lsin ilohim ilm yo'lga belini qattiq bog'lagan zabardast shogirdlar bilan bir qatorda solih va soliha izdoshlarni ham bu millatning rivoji uchun, ilm fanning kamol topishi uchun taqdim etganlar. Shoraxmetov ustozning qizlari yuridik fanlar nomzodi, dotsent Shoraxmetova Umida Sho-akbarovna hozirgi kunda Toshkent davlat yuridik universiteti Fuqarolik huquq kafedrasida faoliyat yuritib kelmoqdalar. Shoraxmetov ustozning 3 ta nevaralari ham o'zlarining ilm yo'lga bag'ishlagan bo'lib, bular: Saidaxon opa hozirgi kunda iqtisodiy yo'nalishda, Shaxrizoda opa xorijiy tillar bo'yicha mutahassis va Islombek nabiralari bobolarining yo'lini tanlab hozirgi huquqshunos bo'lib faoliyat yuritmoqdalar.

Fikrimiz so'ngida shunday ustozning hayot va yozgan asarlarini o'rganib, u kishining shaxsiyati bilan yaqindan tanishishga zamin yaratgan universitetimiz ma'muriyatiga ham minnatdorchilik bildiraman. Ustozning hayot yo'lini o'rganib haqiqiy ilmsevar va millatga foydasi tekkan insonlarning tanadagi joni bu dunyoni tark etsa-da, ularning ruhlari yetishtirgan shogirdlari-yu tarbiyalagan bolalari, yozgan asarlarida barhayot yasharverarkan. Shu ustoz haqida shogirdlarida so'rasangiz, farzandlar-u nabiralari bilan suhbatda bo'lsangiz, yozgan asarlarini chin yurakdan

o'qisangiz ustozning o'zi bilan qayta-qayta muloqatga kirisharkansiz. Hayotda aslida Shoraxmetov ustozdek yashash kerak ekan. Shunda tanagizdagi bu jon dunyoni tark etsa-da, ma'nan shakllangan ruhingiz odamlar ongi-yu qalbida yillar davomida yashayverarkan. **Davomi bor....**

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Shoraxmetov Sh.Sh. Fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. – Toshkent, 1980.
2. Shoraxmetov Sh.Sh. O'zbekiston Grajdanklik kodeksiga sharhlar. – Toshkent, 1974.
3. Shoraxmetov Sh.Sh. O'zbekiston Grajdanklik kodeksiga sharhlar. – Toshkent, 1976.
4. Xabibullaev D.Y. bilan muallif tomonidan o'tkazilgan suhbat materiallari. – Toshkent, 2023.
5. Esanova Z.N. bilan muallif tomonidan o'tkazilgan suhbat materiallari. – Toshkent, 2023.
6. Shoraxmetova U.Sh. bilan muallif tomonidan o'tkazilgan suhbat materiallari. – Toshkent, 2023.
7. "Toshkent davlat yuridik universiteti tarixidan" to'plami. – Toshkent, 2022.
8. "O'zbek yuridik fanining atoqli namoyandalari" to'plami. – Toshkent, 2018.
9. O'zbekiston yuristlari ensiklopediyasi. – Toshkent, 2017.
10. "Donolarning bisoti" kitobidan hikmatlar. – Toshkent, 1995.
11. O'rta Osiyo davlat universiteti yuridik fakulteti arxiv materiallari (1950-1954 yillar).
12. Namangan viloyat Ijroyi komiteti arxiv hujjatlari (1954-1955 yillar).
13. Zardaryo rayon komsomol komiteti va xalq sudi faoliyati to'g'risidagi hujjatlar (1955-1967 yillar).
14. Toshkent davlat universiteti yuridik fakulteti kafedralar to'g'risidagi hisobotlar (1967-1990 yillar).
15. "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yuristlar" to'g'risidagi ma'lumotnoma. – Toshkent, 2000.